

**O'ZBEKISTONDA YOSHLARGA OID DAVLAT
SIYOSATINING HUQUQIY ASOSLARI**

Ilmiy rahbar: Inagamova Mafura Muxtarxanovna

Toshkent davlat transport universiteti dotsenti, (PhD), dotsent

Toshmurodova Marjona Abdumalikovna

Toshkent davlat temir yo'l texnikumi o'quvchisi

Mamlakatimizda yosh avlodga ta`lim tarbiya berish, ularni bilimli va zukko qilib tarbiyalash hamda turli yo`nalishlarda ijod qilayotgan yosh ijodkorlarni qo`llab-quvvatlash hamda ularni rag`batlantirish borasida qator ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. Respublikamiz yoshlari o`rtasida turli ta`lim grantlarining e`lon qilinishi, ta`lim olish uchun yoshlarga berilayotgan imkoniyatlar kelajakda yoshlarning aqliy salohiyatini yuksak darajaga ko`tarilishidan darak beradi.

Mamlakatimiz mustaqilligining ilk kunlaridanoq yoshlar masalasi davlat siyosati darajasiga ko`tarildi. Mazkur yo`nalishda bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, ijroga qaratildi. Xusasan, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999-yil 10-iyunda “Zulfiya nomidagi Davlat mukofotini ta`sis etish bo`yicha takliflarni qo`llab-quvvatlash to`g`risida”gi PF-2326-sonli Farmoni¹ e`lon qilindi. Ushbu mukofot mamlakatimiz yoshlari, iqtidorli va iste`dodli qizlarning hayotida ijtimoiy hodisa sifatida qabul qilindi. Zulfiya mukofoti mazmun va mohiyati bilan Prezidentimiz, hukumatimiz tomonidan yoshlarga va ularning kelajagiga ko`rsatilgan katta e`tibor va g`amxo`rlik timsolidir.

Shuningdek, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-iyuldagи “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O`zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo`llab-quvvatlash to`g`risida”gi PF-5106-sonli Farmoni²ga muvofiq 2017-yil 21-noyabrdagi PQ-3402-sonli Qarori³ asosida “Mard o`g`lon” davlat mukofoti ta`sis etilganligi ham yoshlarga berilayotgan katta e`tibor berilayotganligidan darak

¹ O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1999-y., 6сон, 151-modda; , 2000-y., 9-10-сон, 275-modda; O`zbekiston Respublikasi qонун hujjatlari to`plami, 2006-y., 4-5-сон, 22-modda; 2013-y., 4-сон, 43-modda; Qонун hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 30.03.2018-y., 06/18/5389/0962-сон; 14.12.2019-y., 06/19/5894/4161-сон; 17.03.2021-y., 06/21/6188/0216-сон

² O`zbekiston Respublikasi qонун hujjatlari to`plami, 2017-y., 27-сон, 607-modda; Qонун hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 19.01.2018-y., 06/18/5304/0591-сон; 25.05.2018-y., 06/18/5447/1269-сон; 01.06.2018-y., 06/18/5454/1290-сон, 28.12.2018-y., 06/18/5607/2385-сон; 27.08.2019-y., 06/19/5787/3650-сон; 17.03.2021-y., 06/21/6188/0216-сон; Qонunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.04.2021-y., 06/21/6218/0398-сон, 09.04.2022-y., 06/22/101/0288-сон; 03.12.2022-y., 06/22/258/1064-сон

³ Qонун hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 22.11.2017-y., 07/17/3402/0285-сон; 14.12.2019-y., 06/19/5894/4161-сон; Qонunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 20.01.2022-y., 07/22/92/0046-сон; 13.06.2023-y., 06/23/92/0366-сон

beradi. Ushbu davlat mukofoti buyuk ajdodlarimizga munosib bo'lgan, mardlik va jasorat, qat'iyatlilik, halollik, vatanparvarlik kabi fazilatlarga ega bo'lgan mard o'g'lonlarimizning hayotning turli sohalarida yuqori natijalarga erishib kelayotganliklarini munosib taqdirlash munosabati bilan ta'sis etilgan. Shu kabi mukofotlarning ta'sis etilishi yoshlarning yanada ko'proq bilimli bo'lishga, yangi narsalar yaratishga bo'lgan ishtiyoyqini yanada oshirishga turtki bo'ladi desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Bundan tashqari umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliv ta'lim muassasalarida sport seksiyalari, fan, texnika to'garaklari va ijodiy to'garaklar faoliyatini tashkil etish, iqtidorli va iste'dodli yoshlarni aniqlash va rag'batlantirish maqsadida tanlovlar, olimpiadalar, ko'rgazmalar, festivallar tashkil etish hamda o'tkazish, yoshlarga oid xalqaro tajriba almashuvi, iqtidorli va iste'dodli yoshlarni ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida, shu jumladan xorijiy mamlakatlarda o'qitish, qayta tayyorlash va amaliyotni o'tash dasturlaridan tanlov asosida foydalanishini ta'minlash, ilmiy-tadqiqot, madaniy-ma'rifiy ishlarni o'tkazish uchun yosh mutaxassislar va olimlarga shart-sharoitlar yaratish, yosh olimlarning ishlanmalarini amaliyotga joriy etishga ko'maklashish, shuningdek yoshlarning kadrlar salohiyatini saqlab qolish hamda rivojlantirish, sport-ta'lim muassasalari, klublari tarmoqlarini rivojlantirish, iqtidorli va iste'dodli yosh sportchilarni qo'llab-quvvatlash, yoshlar o'rtasida sport musobaqalarini o'tkazish kabilar ham yoshlarga oid davlat siyosatining bir qismi hisoblanadi.

Yana bir muhim masala yoshlarni ilmiy salohiyatini oshirishga moddiy taraflama o'z yordamlarini ko'rsatuvchi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 25-sentabrdagi PF-5545-sonli Farmoni⁴ asosida tashkil qilingan «El-yurt jamg'armasi» xorijda yashayotgan va professional faoliyatini yuritayotganlar, ayniqsa, katta ilmiy salohiyatga ega olimlar, mutaxassislar va iste'dodli yoshlar bilan yaqin hamkorlikni yo'lga qo'yish yetakchi xorijiy ta'lim muassasalarida hamda O'zbekistonda tayyorlash va malakasini oshirish orqali kadrlar tayyorlash maqsadida tuzilgan. Ushbu jamg'arma hozirgi kunda ko'plab iqtidorli yoshlarning xorijda o'qishlari hamda tajriba almashishlari uchun yetarlicha moddiy qo'llab-quvvatlamoqdalar. Ushbu jamg'arma yordamida ko'plab O'zbekistonlik yoshlar chet elning nufuzli universitetlarida tahsil olishmoqda. Hozirgacha amalga oshirilgan sa'y-harakatlar ma'lum samaralarni berayotgan bo'lsa-da, hali kompleks yondashuv parametrlarini to'liq ishlab chiqilgani yo'q. Jamg'arma oldiga qo'yilgan vazifalar ijrosini ta'minlash bo'yicha muayyan ishlar qilinyapti. Ishlab chiqilgan "YO'L XARITASI"ga ko'ra, xalqaro hamkorlik ko'lami izchil kengaytirilmoqda. Jamg'arma

⁴ Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 26.09.2018-y., 06/18/5545/1968-son; 12.02.2021-y., 06/21/6168/0111-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.04.2021-y., 06/21/6218/0398-son

tomonidan dunyoning rivojlangan 26 ta davlatidagi 74 ta universitet va ilmiy markaz bilan hamkorlikda 500 ga yaqin yigit-qizlarning bakalavr, magistratura hamda doktorantura ta’lim dasturlarida malaka oshirishi, stajirovka o’tashi bosqichma-bosqich olib borilmoqda.

Jamg‘arma xorijiy hamkorlar bilan ishslash jarayonida uzoq yillik tajribaga alohida e’tibor qaratyapti. Jumladan, Britaniya kengashining O‘zbekistonidagi direktori Reychel Aylend xonim bilan bo‘lgan uchrashuv davomida O‘zbekiston yoshlari uchun zamonaviy va samarali loyihalarni ishlab chiqishga kelishib olindi. Britaniya kengashi “El-yurt umidi” jamg‘armasi bilan yaqin hamkorlikka tayyorligi, xususan, Buyuk Britaniya universitetlarida doktorantura va magistraturada o‘qish, malaka oshirish hamda stajirovkani tashkil etishda ko‘mak ko‘rsatishini bildirdi. Shuningdek, AQSHning Janubiy Karolina universiteti bilan turizm va mehmonxona industriyasi, Buyuk Britaniyaning Lafboro universiteti bilan texnika hamda muhandislik yo‘nalishlarida, Germaniyaning Berlin texnika universtiteti bilan iqtisodiyotda innovatsion tarmoqlarni rivojlantirish, Singapur biznes markazi bilan bank tizimi xodimlari malakasini oshirish dasturlarini ro‘yobga chiqarish loyihalari ishlab chiqilmoqda.

Prezidentimiz 2023 yil 17-20 sentyabr kunlari AQSHga amaliy tashrif bilan bordi. Davlat rahbari tashrif doirasida Qo‘shma Shtatlarda yashayotgan va ishlayotgan bir guruh vatandoshlar hamda ushbu mamlakatning yetakchi oliy ta’lim dargohlarida tahsil olayotgan “El-yurt umidi” jamg‘armasi stipendiatlari bilan uchrashdi. Prezidentning ushbu yoshlar bilan uchrashuvi davomida Amerikadagi yoshlarni qiyayotgan masalalarni eshitdi, ularga yechim berdi. Bu ham yoshlarga bo‘lgan e’tiborning yorqin dalili hisoblanadi.

Yoshlar sohasidagi vaziyat va amalga oshirilgan tadbirlar tahlili yoshlarning keng qatlamlariga daxldor bo‘lgan dolzarb masalalar, ayniqsa, uyushmagan yoshlarning hayotda o‘z o‘rnini topishi uchun munosib sharoit yaratish, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, kasbga yo‘naltirish va bandligini ta’minlash, tashabbuslarini rag‘batlantirish borasidagi ishlar talab darajasida tashkil etilmaganidan dalolat bermoqda.

Chekka hududlarda istiqomat qilayotgan ko‘p sonli yoshlarning o‘z iqtidor va iste’dodini ro‘yobga chiqarishlari, tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishlari uchun keng sharoitlar yaratish, ularni turli zararli illat va yot g‘oyalar ta’siridan himoya qilish, yoshlar o‘rtasida huquqbazarliklarning barvaqt oldini olish kabi muhim vazifalarni hal etishda “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati O‘zbekiston yoshlarini buyuk maqsadlar sari birlashtiradigan va safarbar etadigan ommaviy harakatga aylana olmaganini hayotning o‘zi ko‘rsatmoqda. Shu sababli, yoshlarga oid davlat siyosatini izchil va samarali amalga oshirish, yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini tubdan isloh etish maqsadida hamda bu

borada keng jamoatchilik, avvalo, yoshlar vakillarining taklif va mulohazalarini e'tiborga olgan holda O'zbekiston "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatining 2017-yil 30-iyun kuni bo'lib o'tgan IV qurultoyi qaroriga muvofiq, O'zbekiston yoshlar ittifoqi tashkil etilgan va 30-iyun yoshlar kuni deb e'lon qilingan. Shu yildan boshlab ushbu kun yoshlar kuni sifatida nishonlab kelinmoqda. Shuningdek, Yoshlar Ittifoqiga a'zo bo'lish yosh chegarasi 30 yosh deb belgilandi.

Shuningdek, mazkur sohadagi faoliyatni tubdan takomillashtirish maqsadida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonuni bugungi davr talablariga mos ravishda har tomonlama barkamol, mustaqil fikrlaydigan, mamlakatimiz istiqboli uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir, tashabbuskor, xalq manfaati yo'lida bor salohiyatini safarbar qiladigan, shijoatli yoshlarni tarbiyalash, ularning intellektual va ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun mustahkam huquqiy poydevor yaratdi.

O'zbekiston yoshlar ittifoqi quyidagi imkoniyatlarni taqdim etadi:

Ushbu tizimida uch yil va undan ko'p muddat davomida faol ishlab kelayotgan xodimlarga uy-joy sotib olish uchun ipoteka kreditining boshlang'ich to'lovi, shuningdek, tashkilotning faol a'zosi bo'lgan oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat va magistratura bosqichlari talabalariga o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichi 86 foiz va undan yuqori bo'lgan taqdirda ta'lim bo'yicha to'lov kontrakti miqdorining 35 foizi O'zbekiston yoshlar ittifoqining rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan to'lanadi.

Muhim jihat shundaki, mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtirok etayotgan yosh oilalarni yanada qo'llab-quvvatlash, ularning uy-joy va maishiy sharoitlarini yaxshilash maqsadida 2018-2021-yillarga mo'ljallangan Yoshlar uylarini barpo etish dasturi ishlab chiqildi. Mazkur dasturda barcha yirik shaharlarda – ko'p qavatli, qishloq tumanlarida – 1-2 qavatli namunaviy loyihalar asosida arzon uylar yoshlarning uy-joyga bo'lgan ehtiyojlaridan kelib chiqib qurildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmonida yoshlarga oid davlat siyosatini yanada takomillashtirish, yoshlarning 38 % ini OTM bilan qamrab olish, Samarqandda 20 ming talabaga mo'ljallangan "Yoshlar shaharchasi"ni tashkil qilish, jismoniy tarbiya va sportga jalb qilingan yoshlarni 33 % ga yetkazish, imkoniyati cheklangan yoshlar uchun maxsus infratuzilma yaratish kabi maqsadlar belgilab olinganligi yoshlarning yanada ko'proq natijalarga erishishiga yordam beradi deb o'ylayman.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 13 iyul 2021 yildagi «Yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ularning ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid

qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» PF-6260-son Farmoni «Yoshlar parlamenti»⁵ tashkil etildi. Parlamentning asosiy maqsadi sifatida hudularda yoshlarning jamiyat va davlat ishlarini boshqarishdagi o'rni va ta'sirini amalda ta'minlash, ularning huquqiy ongi va savodxonligini oshirish, jamiyatda yoshlarni siyosiy faol qatlamga aylantirish hamda siyosiy-huquqiy ko'nikmalarini oshirish hisoblanadi.

Yoshlarga berilayotgan imtiyozlarga to'xtaladigan bo'lsak, bizga ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 28-aprel 2021 yildagi "Moddiy yordam va ko'makka muhtoj oilalarni, xotin-qizlar va yoshlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 250-son Qaroriga⁶ asosan mamlakatimizda aholi, shu jumladan, xotin-qizlar va yoshlarning ijtimoiy himoyaga muhtoj, turmush sharoiti og'ir, ishsiz va kasb-hunarga ega bo'limgan, huquqiy va ma'naviy-psixologik qo'llab-quvvatlashga zarurati bo'lgan fuqarolarga davlat tomonidan manzilli ko'maklashish bo'yicha «Yoshlar daftari» tizimi amaliyotga joriy etildi. Yana magistraturaga qabul qilingan xotin-qizlarga kontrakt to'lovlar hech qanday shartlarsiz to'lab berilishi yo'lga qo'yildi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 7-iyundagi «Yoshlar muammolarini o'rganish va hal etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 312-son Qaroriga⁷ asosan "Yoshlar daftariga kiritilgan yoshlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi to'g'risidagi namunaviy nizom» tasdiqlandi. "Yoshlar daftari" jamg'armasi mablag'lari "Yoshlar daftari"ga kiritilgan moddiy ahvoli qiyin yoshlarga BHMning 4 baravarigacha miqdorda bir martalik moddiy yordam ko'rsatishga, yoshlarni tadbirkorlik va kasb-hunarga o'qitish bo'yicha nodavlat ta'lim tashkilotlariga sarflanadigan xarajatlarning 75 foizigacha qismini qoplashga, "Yoshlar daftari"ga kiritilgan yoshlarga tadbirkorlik faoliyati hamda o'zini o'zi band qilish maqsadida noturar joyning 12 oygacha ijara xarajatlarini ko'pi bilan bir yilda BHMning 25 baravarigacha miqdorda qoplashga, "Yoshlar daftari"ga kiritilgan yoshlarga tadbirkorlik faoliyatini boshlash va o'zini o'zi band qilishga zarur bo'lgan asbob-uskunalar va mehnat quollarini xarid qilish uchun BHMning 40 baravarigacha miqdorda subsidiya ajratishga, mamlakatimizdagи OTMda o'qiyotgan "Temir daftar"ga kiritilgan oilalar farzandlari to'lov-kontrakt summasining 50 foizigacha, ammo BHMning 50 baravaridan oshmagan miqdorda to'lab berishga, "Temir daftar"ga kiritilgan oilalarning ahvoli og'ir bo'lgan bemor farzandlariga

⁵ Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 14.07.2021-y., 06/21/6260/0673-son; 15.01.2022-y., 06/22/52/0029-son; 13.06.2023-y., 06/23/92/0366-son

⁶ Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.04.2021-y., 09/21/250/0389-son, 23.07.2021-y., 09/21/450/0691-son, 17.08.2021-y., 09/21/524/0802-son, 07.10.2021-y., 09/21/624/0940-son, 26.10.2021-y., 09/21/656/0996-son; 01.04.2022-y., 09/22/145/0253-son, 05.04.2022-y., 09/22/153/0266-son, 08.04.2022-y., 07/22/198/0282-son, 07.06.2022-y., 09/22/312/0493-son, 08.07.2022-y., 09/22/375/0618-son; 10.08.2022-y., 09/22/438/0726-son; 10.09.2022-y., 07/22/373/0808-son

⁷ Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 07.06.2022-y., 09/22/312/0493-son

mamlakatda yoki xorijiy davlatda davolanish bilan bog‘liq xarajatlarni BHMning 50 baravaridan oshmagan miqdorda qoplashga yo‘naltiriladi. Shuningdek, mazkur qaror ijrosi bo‘yicha Yoshlar ishlari agentligi tuman(shahar) bo‘limlari “Yoshlar daftari” jamg‘armasining ishchi organi hisoblanadi.

Adliya bo‘limlarini tashkil etish bo‘yicha qaror qabul qilinishidan asosiy maqsad huquqni qo‘llash amaliyotini tizimli tahlil qilish va uning izchilligi va bir xilligini ta’minalash bo‘yicha ta’sirchan choralarni ishlab chiqish, huquqiy normalarning o‘zboshimchalik bilan va noto‘g‘ri talqin qilinishiga yo‘l qo‘ymaslik yuzasidan joylarda davlat organlari va boshqa tashkilotlarga huquqiy maslahatlar berish, shuningdek yoshlarning huquq va erkinliklari, ularning haqiqiy ehtiyojlari bilan bog‘liq holda ta’minalishiga erishishdan iborat edi. Bu esa yoshlarimizning viloyatlar markaziga yuzlab chaqirim yo‘l bosib o‘tirmay, ularning huquqiy muammolarini ortiqcha ovoragarchiliksiz hal etishga imkon berdi. Adliya bo‘limlarining tashkil qilinganligi fuqarolarning, ayniqsa yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish yo‘lida katta qadam bo‘ldi deb ayta olamiz.

Shuningdek, o‘tgan davr mobaynida yoshlarning kundalik hayotida uchraydigan huquqiy muammolarini tahlil qilib, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha qonunchilikka berilgan takliflar ko‘plab byurokratik to‘sislarni oldini olganligini ko‘rishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytganda, yoshlar barcha davrlarda jamiyatning faol qatlami sifatida e’tirof etib kelingan. Bu esa muntazam shakllanib boruvchi bu qatlam doimiy yo‘naltirib va qo‘llab-quvvatlab turishni talab etadi. Mazkur vazifalar qonunlar ijrosining kafolati hisoblangan davlat tomonidan amalga oshiriladi. Davlat tomonidan yoshlarning mamlakat manfaatlari yo‘lida erkin ijtimoiylashuvi va o‘zini samarali namoyon etishi uchun qulay sharoit va imkoniyat yaratish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar tizimi yoshlarga oid davlat siyosatini anglatadi. O‘z mohiyatiga ko‘ra, davlatni ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy rivojlantirish, raqobatbardoshligini ta’minalash, milliy xavfsizligini mustahkamlashni ko‘zda tutuvchi bu siyosat dasturiy, tashkiliy, siyosiy va iqtisodiy mexanizmlarga tayanadi.